

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

R.U.Nurjanova

– p.f.n., dotsent

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kreativligini funksional yondashuv asosida rivojlantirish masalasi keng yoritilgan. Kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmun mohiyati, uning tarkibiy komponentlari – nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, kommunikativ va innovatsion salohiyat, shuningdek, shaxsiy va motivatsion jihatlar tahlil qilinadi. Funksional yondashuv pedagogik jarayonni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, bunda tarbiyachi, bola, pedagogik metod va mashg‘ulot shakllari o‘zaro bog‘liq holda umumiy maqsadga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bo‘lajak tarbiyachilarga kasbiy vazifalarni samarali va ijodiy bajarishga tayyorlash, nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish hamda reflektiv va metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativ faollik, bo‘lajak tarbiyachi, maktabgacha ta’lim, ijodiy fikrlash, pedagogik mexanizmlar, innovatsion yondashuv, kasbiy kompetentlik.

KIRISH

Bo‘lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatlari mahsuli bo‘lgan pedagogik jarayon loyihalarida o‘zlarining ongli maqsadlarini amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladilar. Ushbu maqsadlar bo‘lajak tarbiyachining harakat usullari va kasbiy faoliyat xarakteriga ta’sir qiladi. bo‘lajak tarbiyachining loyihalash faoliyatda, ya’ni faoliyatning ideal shaklida, birinchidan, istiqboldagi kasbiy faoliyat obrazi yaratiladi va unda bo‘lajak tarbiyachining kasbiy ehtiyojlari ham aks etadi.

Pedagogik jarayon o'z mazmuni, metodlari, texnologiyalari va munosabatlar tizimi orqali bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kreativligini shakllantirish va rivojlantirish uchun asosiy muhit hisoblanadi. talabalarda kreativ faollikni shakllantirishda ijodiy xarakterdagi pedagogik jarayon muhim ahamiyatga ega.

1. Nomutanosiblikni anglash bosqichi talabalarning mavjud bilimlari, tajriba va fikrlash usullari, yangi vaziyat, muammo yoki talablar o'rtasida nomutanosiblikni ongli ravishda his qilishi bilan tavsiflanadigan kreativ rivojlanishning boshlang'ich bosqichidir. Bir so'z bilan aytganda bu holat talabalarning o'zlari bilgan narsalar, o'zlashtirgan bilimlaridan qoniqmasliklari, murakkab yechimlarni izlab topish zarurligini anglashlarida namoyon bo'ladi. Nomuvofiqlikni anglash ustuvorligi talabada mavjud bilimlar bilan yangi muammo o'rtasidagi farq, kutilgan natija bilan haqiqiy natija orasidagi ziddiyat mavjudligini anglash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu holat kreativ faollikni shakllantiruvchi stimul hisoblanadi. Nomutanosiblikni anglash jarayonida talabalarda emotsional-ruhiy zo'riqish mavjud bo'lgan sharoitlarda ularda noqulaylik, yechimlarni qabul qilishda ikkilanish, o'z harakatlaridan qoniqmaslik, intellektual bezovtalik kabi holatlar vujudga keladi. Bu salbiy holat emas, balki kreativ faollik uchun zarur ijobiy holat sifatida baholanadi.

Nomutanosiblikni anglash bosqichida talabalarda kreativ faollikni rivojlantiruvchi bir qator funksiyalar mavjud. Muammoni sezish funksiyasi, bunda talaba muammoni tayyor holda emas, o'zi anglagan holda qabul qiladi. Motivatsiya hosil qilish funksiyasi, ushbu funksiya doirasida talabalarda tashqi rag'batdan ko'ra ichki bilish ehtiyojlari faollashadi. Bu esa talabani izlanuvchanlik, yangi yechimlarni topish, tajribalar o'tkazishga undaydi. Rivojlanish nuqtasi funksiyasi, mazkur funksiya talabalarda kreativ funksiyani rivojlantirish nuqtisini belgilab, ularda kreativ yechimlarni topish, yangi bilimlarni izlash, shaxsiy-kasbiy takomillashishga intilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Nomutanosiblikni anglash bosqichi bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirishning eng zarur va muhim bosqichi bo'lib, u talabaning bilim va tajribalari kasbiy vazifalarni bajarish imkonini bermasligini anglab yetgan holda ijodiy izlanishga bo'lgan ichki ehtiyojini

shakllantirishga ko‘maklashdi.

2. Bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirishning muammolar qo‘yish bosqichi. Ushbu bosqich kreativ faollikni rivojlantirish jarayonida nomutanosiblikni anglashdan keyingi hal qiluvchi bosqich bo‘lib, unda talaba noaniq, nomutanosib vaziyatni aniq, anglanadigan va yechim talab qiladigan muammoga aylantiradi. Muammolar qo‘yish mavjud holatni tahlil qilish, ideal holat bilan solishtirish, ular orasidagi ziddiyatni aniq ifodadash jarayoni hisoblanadi. Bu bosqichda muammo tayyor holda berilmaydi, talabaning o‘zi tomonidan qo‘yiladi. Mazkur bosqichning talabalarda kreativ faollikni rivojlanishdagi ahamiyati ularda maqsadli kreativ fikrlash, izlanishga yo‘naltirish, tasodifiy g‘oyalardan voz kechib, ularning aniq mazmun mohiyatga ega bo‘lgan variantlarni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammolar qo‘yish bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari muammolarning savol shaklida ifodalanishi, yechimlarning ochiqligi, izlanishlarning shaxsiy ahamiyat kasb etishida namoyon bo‘ladi. Profesor-o‘qituvchi talabalarda muammo qo‘yishni qarama-qarshi dalillar ustida fikr yuritish, noodatiy keyslar, yechimsiz vaziyatlar, xatoli modellar bilan ishlash usullari orqali rivojlantiradi. Muammolar qo‘yish talabaning nomutanosiblikni anglash vaziyatida mavjud bilim va tajribaning yetarli emasligini anglab, ziddiyatli vaziyatni anglanadigan, ochiq va yechim talab qiladigan muammo shaklida ifodalash qobiliyati hisoblanadi.

3. Divergent fikrlash bosqichi talabalarning kreativ fikrlash faoliyatini kengaytirish, alternativ variantlarni ko‘paytirish, standart qoliplardan chiqib ketishga yo‘naltirilgan tafakkurni rivojlantiruvchi bosqichdir. Kreativ faollikning rivojlanishi avvalo ziddiyatli vaziyatni anglashdan boshlanib, muammoni aniq ifodalash, alternativ yechimlarni yaratish, innovatsion qarorni ishlab chiqish va reflektiv tahlil orqali yakunlanadi. Divergent fikrlashning asosiy belgilari ko‘p variantlilik, moslashuvchanlik, noan’anaviylik, tabiiylik, betakrorlik, tahlildan oldin generatsiyalash kabilarda namoyon bo‘ladi. Bunda talabalar bir vaqtning o‘zida ko‘plab g‘oyalarni ilgari suradilar, turli nuqtai nazarlarga oson o‘tadilar, yangilik elementlariga ega bo‘ladi, g‘oyalar tanqid qilinmaydi,

baholash keyinga qoldiriladi. Bo‘lajak tarbiyachilar uchun bir vaziyatga turlicha yondashish turlicha darajadagi tarbiyalanuvchilarning ehtiyojini hisobga olish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda divergent fikrlashni rivojlantirish uchun aqliy hujum, ochiq yechimli topshiriqlar, keys-stadi, rolli o‘yinlar kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Divergent fikrlash talabalarning muammoli vaziyatda bitta emas, balki ko‘plab alternativ, noan’anaviy va mazmunan turli yechimlarni yaratishga qaratilgan tafakkur tarzi hisoblanadi.

4. Innovatsion qarorlar qabul qilish bosqichi. Kreativ faollik rivojlanishining asosiy amaliy bosqichi bo‘lib, unda talabalar divergent fikrlash jarayonida yaratilgan ko‘plab g‘oyalar ichidan eng maqbul, yangilikka ega va amalga oshirish mumkin bo‘lgan yechimni tanlaydilar va asoslashga harakat qiladilar. Bu bosqichda talabalar alternativ g‘oyalarni o‘zaro qiyoslaydilar, ularning yangilik darajasi, samaradorligi va amaliy qiymatini baholaydilar, aniq qaror qabul qiladilar. Ularni himoya qilishga intiladilar. Innovatsion qarorlar qabul qilish bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari yangilik va noan’anaviylik, asoslanganlik, amaliy xarakterga egalikdir. Innovatsion qarorlar qabul qilish talabalarning divergent fikrlash natijasida yaratilgan alternativ yechimlar asosida muammoni hal qilishga qaratilgan, yangilikka asoslangan va amaliy qiymatga ega bo‘lgan qarorlarni tanlash va ishlab chiqish jarayonidir.

5. Refleksiya bosqichi. Refleksiv tahlil va o‘z-o‘zini anglash kreativ faollik jarayonining yakunlovchi va barqarorlovchi bosqichi bo‘lib, unda talaba qabul qilingan innovatsion qarorni, uning natijalarini va o‘zining faoliyat uslubini ongli ravishda tahlil qiladi, baholaydi va umumlashtiradi. Bu bosqichda bo‘lajak tarbiyachilar qabul qilingan qarorning samaradorligini ko‘radi, faoliyatdagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni farqlay oladi, shaxsiy va kasbiy tajribasini ongli xulosaga aylantiradi. Chunki refleksiya o‘z faoliyatining xarakteri va mohiyatini anglash orqali rivojlanish mexanizmi hisoblanadi. Refleksiya ta’lim natijalarining mazmun mohiyatini anglash, talabani istiqboldagi kasbiy faoliyatga maqsadli yo‘naltirish, o‘z - o‘zini kasbiy rivojlantirish kabi o‘ziga xos pedagogik xususiyatlarga ega. Refleksiv tahlil natijasida o‘z - o‘zini anglash talabalarning

kreativ faoliyat natijalarining mazmun mohiyatini tushunish va istiqboldagi kasbiy faoliyati natijalarini pniq tasavvur qilishga qaratilgan kognitiv-shaxsiy faoliyat bosqichidir.

Ijodiy jarayon bosqichma bosqich kechadigan hodisa hisoblanadi. Aamerikalik taniqli psixolog G.Uolles ijodiy jarayonning sxemasi va bosqichlarini ishlab chiqqan. U quyidagi bosqichlarni taklif qilgan: **birinchi bosqich** muammoni tahlil qilish, axborotni to‘plash va qayta ishlash hamda muammoni ongli ravishda hal etishga urinish bilan xarakterlanadi. Bu bosqich natijasiz tugaydi va ijod jarayonining sub’ekti muammoni unutadi. **Ikkinchi bosqich** yetuklik bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda ham alohida namoyon bo‘ladigan rivojlanish kuzatilmaydi. **Uchinchi bosqich** esa ilhom bosqichidir, **to‘rtinchi bosqich** topilgan yechimlarning to‘g‘riligini tekshirish bosqichi hisoblanadi. Muallif navbatdagi modelini taklif qilgan, ushbu model besh bosqichni o‘zida mujassamlashtirgan.

1. Ijod mavzusining vujudga kelishi. Ushbu bosqichda ishning zarurligi ijod sub’ekti tomonidan his etiladi, ijodiy kuchlarni safarbar etishga yo‘naltirilgan ichki taranglik vujudga keladi.

2. Mavzuni qabul qilish, vaziyatni tahlil etish, muammoni anglash bosqichi.

3. Muammoga yechim topish ustida ishlash bosqichi. Bu bosqichda qo‘yilgan muammolarga yechim maqsadida faol tarzda ishlanadi. Bu jarayonda dastlab farazlar ilgari suriladi, tekshiriladi, rad etiladi yoki qablu qilinadi, muammoni hal etish uchun zarur bo‘lgan vositalar tanalanadi.

4. Yechim g‘oyasi, ya’ni insaytning vujudga kelishi.

5. Texnik jihatdan amalga oshirish jarayoni bo‘lib, u alohida izoh talab etmaydi[1;164-b].

Agar yaratilgan ijod mahsuli muayyan kamchiliklarga ega bo‘lsa, o‘z funksiyasini to‘liq bajara olmasa, mazkur mahsulot bilan ehtiyoj orasida ziddiyat vujudga keladi. V.V.Bayluk ijodiy jarayoning quyidagi osqichlarini alohida ajratib ko‘rsatgan[2;31-b].

Birinchi bosqich. Ijodiy g‘oyaning vujudga kelishi, unga tegishli axborotni tanqidiy anglash va muammoni shakllantirish. Ma’lumki ijodiy g‘oyaning shaxs va jamiyatning ehtiyojlari tashkil etadi. Ularni mavjud bilimlar, tajribalar orqali qondirish imkonsiz bo‘lgan vaziyalarda ziddiyatlar vujudga keladi. Ushbu ziddiyat ijodkor shaxs tomondan anglanganda muammoli vaziyat hosil bo‘ladi. Shu tariqa muammoli vaziyatni anglash natijasida muammolar vujudga keladi. Muammolarni aniqlash jarayoni ijodiy g‘oyaga tegishli axborotlarni to‘plash, qayta ishlash hamda muammoni hal qilishga qaratilgan intilishlar bilan bir vaqtda amalga oshadi.

Ikkinchi bosqich. Muammoni hal qilish yo‘llarini izlash va unga yechim topish. Muaallif muammolarga yechim topishning ikki yo‘lini taklif qilgan 1) mantiqiy fikrlash orqali, 2) intuitiv bilish orqali. Bu jarayonda intuitsiya ratsional bilish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ratsional bilish nazariyasi Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Imom G‘azzoliy, R.Dekart, B.Spinoza, G.Leybnis, I.Kantlar tomonidan asoslangan. Murakkab muammolarni hal qilishda, ehtimol, mantiqiy va intuitiv yo‘llarning uyg‘unligi zarur hisoblanadi.

Uchinchi bosqich. Muammo yechimining to‘g‘riligini dastlabki tekshirish.

To‘rtinchi bosqich. Ijodkor shaxs tomonidan yaratilgan yangi narsaning sub’ektiv obrazini yozma va og‘zaki nutq orqali bayon qilish. Yozma nutq vositasida ijodkor tomonidan yaratilgan yangi mahsulot uning sub’ektiv shaklidan chiqib, ongdan tashqarida mavjud bo‘lgan madaniy yoki anti-madaniy moddiy ob’ektga aylanadi. Asosiy jihat sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, yangi mahsulotning ijodkordagi sub’ektiv shakldan yozma va og‘zaki nutqiy shakllarga o‘tishi, birinchidan, ijodiy faoliyat o‘ziga xos ijodiy jarayon hisoblanadi, chunki har qanday mazmunni unga mos shaklga ifodalash shaxsdan ijodkorl ikni talab qiladi; ikkinchidan, aynan shu jarayonda sub’ektiv ijodiy jarayon mahsulining o‘zi ham qayta ishlanadi va takomillashadi. Shu sababli, ijodiy jarayonning ikkinchi modelida ajratiladigan 5-bosqichni faqat ijrochilik, mohiyatan texnik va alohida izoh talab qilmaydigan bosqich sifatida talqin qilishga noto‘g‘ri bo‘lar edi. Og‘zaki nutq asosida bayon qilinadi, shu tariqa ijod mahsulining aprotatsiyasi amalga oshadi. Bu

jarayonda ijodkor talaba guruhdoshlarining munosabatini qabul qiladi ular bilan ijodiy muloqotga kirishadi.

Beshinchi bosqich. Ijod mahsulini ob'ektiv ifodalash va qayta ifodalash. Ijodiy jarayonda yaratilgan uni og'zaki nutqda ifodalash va qayta ifodalash orqali amaliy qo'llash uchun asos yaratadi. Bu esa ijod mahsulining ko'p miqdorda ishlab chiqarilishiga imkoniyat yaratadi. Natijada mazkur mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun qulay sharoit vujudga keladi. Ishlab chiqarilgan ijod mahsulining ijtimoiy mazmunini uni taqozo qilgan ehtiyoj belgilaydi. Mahsulotning mazmun mohiyati ijtimoiy ehtiyojni qondirgandagina u ob'ektiv xarakter kasb etadi.

XULOSA

Bo'lajak tarbiyachilar tomonidan yaratilgan ijod mahsullari istiqbolda maktabcha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonlarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qilish lozim. ko'rinib turibdiki ijod ijodga bo'lgan shaxsning ijodiy qobiliyai, ijodiy jarayon hamda ijld mahsulini o'z ichiga oladi. Ijodkorlik kreativ faollikning asosi bo'lib, inson tafakkuri, tasavvur kreativligi, ijodiy jarayonni mujassamlashtiradi. Ijodkorlik ushbu tarkibiy qismlar bilan umumiylik va farqli jihatlariga ega bo'lib, ularning uyg'unlashuvini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Данияров Б. Х. Принципы и приёмы оригинальной методики обучения русскому языку взрослых //Преподавание языка и литературы. – 2021. – №. 7. – С. 70-73.
2. Данияров Б. Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нуткий муносабати, лексикографик тадқиқи //Монография. Тошкент:“Сано стандарт. – 2019. – С. 171.
3. Данияров Б. Х. Проблемы лексической синонимии узбекского языка: Коннотативный аспект семантики номинативных единиц //Москва: Институт языкознания РАН. – 1994. – С. 80.

4. Данияров, Б. Х. "Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография." *Ташкент: Издательство Bookmany print* (2022).
5. Ikromjon Habibjonov, Po‘lat Mo‘min ijodida odob-axloq masalalari, “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 2, Issue 4 / December, 2021. ISSN: 2181-063X.
6. Xanifa Jurayeva, I.Habibjonov, Namanganda tug‘ilmagan namanganlik (Sunnatulla Anorboyev tavalludining 100 yilligiga), “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 3, Issue 4 / December, 2022. ISSN: 2181-063X.
7. Ikromjon Toshpo‘lat o‘g‘li Habibjonov, Sovet ittifoqining soliq-bojxona tizimiga bo‘lgan munosabati, “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 3, Issue 3 / September, 2022. ISSN: 2181-063X.
8. Xanifa Jurayeva, I.Habibjonov, Andersen asarlarida tarbiya motivi, “World of Philology” Scientific Journal / Volume 2, Issue 1 / March 2023. ISSN 2181-3630.
9. Икромжон Тошпўлат ўғли Ҳабибжонов, Солиқ-божхона терминологиясида дублетлик ва уни тартибга солиш масалалари, «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 ///// \\\\\ Volume: 1, ISSUE: 6.
10. Nasriyeva D. Tilshunoslikda diskurs va matn talqini //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.3. – С. 307-309.
11. Nasriyeva Dilnoza, National-mental factors in the artistic discourse of isajon sultan (on the example of the novel “geneticist”), European journal of literature and linguistics, 2023. – P. 53-56.

12. Dilnoza Nasriyeva, Isajon Sulton badiiy diskursining milliy-mental xususiyatlari, Filologiya masalalari–yosh tadqiqotchilar nigohida, Vol. 1 No. 1 (2023).
13. Dilnoza Muhiddinovna Nasriyeva, **Isajon Sulton asarlarida pretsedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida**, FarDU ilmiy xabarlari, 25.08.2022.
14. Ubayevna R.H. Features of interaction between preschool children //Shokh library. – 2025.
15. X.U.Rizayeva, Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2024, №8.
16. Rizaeva Xusniya Ubayevna, Batareykalar va ularning bola hayotidagi salbiy ta'siri, Лучшие интеллектуальные исследования, 2023/10/20, – В. 83-88.
17. Rizayeva Husnia Ubayevna, Features of interaction between preschool children, International Multidisciplinary Journal for Research & Development, Vol. 12 No. 01 (2025).
18. Urazbaevna N. R. Development of Creative Abilities of Future Preschool Teachers //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – T. 4. – №. 4. – С. 174-175.
19. Nurjanova R. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilolti tarbiyachilarida maxsus kompetensiyalarni shakllantirish //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 9. – С. 449-452.
20. Urazbaevna N. R. Methodology of forming self-assessment skills in educators of school educational organizations //Confrencea. – 2023. – T. 4. – №. 04. – С. 375-378.
20. Urazbaevna, Nurzhanova R. "Development of Creative Abilities of Future Preschool Teachers." *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, vol. 4, no. 4, 26 Apr. 2023, pp. 174-175.

21. Uljon Boboqulova, The artistic interpretation of historical female images in abdulla oripov's poetry, Navigating challenges and opportunities in a changing world, 2025-07-25.
22. Uljon Boboqulova, Reflection of the lyrical hero's personality in Abdulla Oripov's poems on the theme of mother, American Journal Of Philological Sciences (ISSN – 2771-2273), 2025/5/16.
23. Uljon Boboqulova, Ona obrazida lirik fojellikning aks etishi, Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2025/5/4.
24. Uljon Boboqulova, Qizlar madhi. Ikki shoir talqinida, Til va adabiyot.uz, 2025/3.